



**Mavzu: Xulosa chiqarishning  
umumiy mantiqiy tavsifi.**

**A.S.Ravshanov**

## **Reja:**

- 1. Xulosa chiqarish – tafakkurning mantiqiy shakli.**
- 2. Deduktiv xulosa chiqarish.**
- 3. Induktiv xulosa chiqarish.**
- 4. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish.**

# *Tayanch tushunchalar*

•Xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish, sillogizm, entimema, polisillogizm, induktiv xulosa chiqarish, to‘liq induksiya, to‘liqsiz induksiya, ommabop induksiya, ilmiy induksiya, ilmiy induksiya metodlari, statistik umumlashtirish. Analogiya, xususiyatlar analogiyasi, munosabat analogiyasi,modellashtirish.

# **Xulosa chiqarish**

**Xulosa chiqarish** deb, bir yoki bir necha hukmlardan ma'lum qoidalar asosida yangi hukmni keltirib chiqarishga aytiladi.

# XULOSA CHIQRARISH TURLARI

FIKRNING HARAKAT  
YO'NALISHIGA  
KO'RA

ASOSLAR SONIGA  
KO'RA


DEDUKTIV XULOSA  
CHIQRARISH

INDUKTIV XULOSA  
CHIQRARISH

ANALOGIYA

BEVOSITA XULOSA  
CHIQRARISH

BILVOSITA XULOSA  
CHIQRARISH





# **Xulosa chiqarishning 3 asosiy turi mavjud:**

**Deduktiv xulosa  
chiqarish**

**Induktiv xulosa  
chiqarish**

**Analogiya  
bo'yicha xulosa  
chiqarish**

# **Deduktiv xulosa chiqarish**



**Inson fikrining umumiylikdan yakkalikka qarab borishi natijasida hosil bo'lgan yangi bilim deduktiv xulosa deb yuritiladi.**



# DEDUKTIV XULOSA CHIQRARISH TURLARI

**BEVOSITA XULOSA CHIQRARISH**  
– BIR ASOSDAN MA'LUM  
USULLAR ORQALI YANGI  
HUKM HOSIL QILISHDIR

**AYLANTIRISH ORQALI  
XULOSA CHIQRARISH**

**ALMASHTIRISH ORQALI  
XULOSA CHIQRARISH**

**PREDIKATGA QARAMA –  
QARSHI QO'YISH ORQALI  
XULOSA CHIQRARISH**

**MANTIQIY KVADRAT ORQALI  
XULOSA CHIQRARISH**

**BILVOSITA XULOSA CHIQRARISH IKKI  
VA UNDAN ORTIQ ASOSLARDAN  
MA'LUM USULLAR ORQALI YANGI  
HUKM HOSIL QILISHDIR**

**DEDUKTIV XULOSA  
CHIQRARISH**

**INDUKTIV XULOSA  
CHIQRARISH**

**ANALOGIYA ORQALI  
XULOSA CHIQRARISH**



**Deduktiv xulosa chiqarish ikki usulda amalga oshiriladi:**

Bevosita deduktiv  
xulosa chiqarish

Bilvosita deduktiv  
xulosa chiqarish

# **Bevosita deduktiv xulosa chiqarish**

Bir asosdan mantiqiy tahlil orqali yangi fikr (bilim)ni hosil qilish-bevosita deduktiv xulosa chiqarish, deb yuritiladi. Yangi fikr (bilim)ga asos bo'lgan mushohada xulosaning asosi, hosil bo'lgan yangi fikrxulosa bo'lib hisoblanadi



# **Bilvosita deduktiv xulosa chiqarish**

Birdan ortiq asosdan yangi fikrni hosil qilish mantiqiy uslubi bilvosita xulosa chiqarish, deb yuritiladi. Bilvosita xulosa chiqarish jarayonida inson fikri umumiylikdan yakkalikka, yakkalikdan umumiylikka, juz'iylikdan juz'iylikka qarab borishi mumkin



# Oddiy qat'iy sillogizm

Deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. Sillogizm qo'shib hisoblash, degan ma'noni anglatadi. Bu termindan mantiqda, odatda, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifoda qilish uchun foydalaniladi.

**Sillogizm** xulosa chiqarishning shunday shakli, unda o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi – yangi qat'iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta, yo umumiy tasdiq, yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi. Shunga ko'ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi.

# Masalan:



- Hech bir xasis saxiy emas.
- Ba'zi boylar xasisdir.
- Bu mulohazalardan zaruriy ravishda – «Ba'zi boylar saxiy emas», degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

## Sillogizmning tarkibi


xulosa asoslari (praemissae) va xulosa (conclusio)dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar **terminlar** deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – S – kichik termin (terminus minor), mantiqiy kesimi – R – katta termin (terminus major), deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy boʻlgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha – M – (terminus medius) oʻrta termin deb ataladi. Asoslarda katta termini oʻz ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik termini oʻz ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi.



**S** – kichik termin;

**M** – o‘rta termin;

**R** – katta termin.



O‘rta termin katta va kichik termini bog‘lovchi mantiqiy element hisoblanadi.


# *Sillogizm aksiomasi*

- Aksiomalar isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning hajmiga yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni atributiv ta'riflash mumkin.





Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi». Bu qoidani quyidagi shakllar yordamida yaqqol ifodalash mumkin.





yoki



Bu qoida sillogizm aksiomasining mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Sillogizm aksiomaning mohiyati quyidagicha: **buyum va hodisalarning sinfi to‘g‘risida tasdiqlab yoki inkor etib bayon qilingan fikr shu sinf ichiga kiruvchi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrim qismiga ham taalluqli fikr hisoblanadi.**



•**Masalan:**

•Tafakkur shakllari obyektiv xususiyatga ega.

•Tushuncha tafakkur shaklidir.

•Tushuncha obyektiv xususiyatga ega.



## *Entimema (qisqartirilgan qat'iy sillogizm)*

•Entimema deb, asoslardan biri yoki xulosasi tushirib qoldirilgan sillogizmga aytiladi. Entimema – aqlda, fikrda degan ma'noni anglatadi. Entimemada sillogizmning tushirib qoldirilgan qismi yodda saqlanadi. Entimemalar uch turli bo'ladi:

- 1. Katta asosi tushirib qoldirilgan.
- 2. Kichik asosi tushirib qoldirilgan.
- 3. Xulosasi tushirib qoldirilgan.

- Bizga quyidagi sillogizm berilgan bo'lsin:
- Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadi.
- Sobirov falsafa fakultetining talabasi.
- Sobirov mantiq fanini o'rganadi.

- Endi bu sillogizmni entimema ko'rinishiga keltiramiz:
- 1. Sobirov falsafa fakultetining talabasi bo'lganligi uchun mantiq fanini o'rganadi (katta asos tushirib qoldirildi).
- 2. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, shu jumladan Sobirov ham (kichik asos tushirib qoldirildi).
- 3. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, Sobirov esa shu fakultetning talabasidir (xulosa tushirib qoldirildi).
- Entimemalar bahs-munozara yuritish jarayonida, notiqlik san'atida keng qo'llaniladi.



## **Induktiv xulosa chiqarish**

**Induktiv xulosa chiqarish jarayonida inson fikri yakkalikdan umumiylikka qarab boradi. Induktiv lotincha “induktiv” so‘zidan olingan bo‘lib, “chiqarish”, «hosil qilish» ma‘nolarini anglatadi.**



# Induktiv xulosa chiqarish

Induktiv xulosa  
chiqarish insoniyat  
amaliy va aqliy  
faoliyatining o'ziga  
xos natijasi  
hisoblanadi.

1. Induktiv xulosa  
chiqarish ma'nosida
2. Olamni bilish  
metodi ma'nosida
3. Muhokama  
yuritish uslubi  
ma'nosida

# Induktiv xulosa chiqarish



Induktiv xulosa chiqarish shunday mantiqiy uslubki, muayan turkumga, mansub ayrim predmetlar haqidagi bilimlardan butun turkum haqidagi umumiy fikrlar hosil qilinadi.



# **Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish**

**Analogiya yunoncha “anologia” so‘zidan olingan bo‘lib, muvofiqlik, o‘xshashli ma’nolarini anglatadi.**

**Analogiya inson tafakkuri taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab rivojlangan.**

**Analogiya xulosa chiqarishning shunday uslubiki, muayyan belgining, munosabatning predmetga xosligi haqidagi xulosa boshqa predmetning belgi va munosabatlariga solishtirish vositasida chiqariladi.**



**E'tiboringiz uchun rahmat!**